

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

FOLKLORDA RANG VA MA’NO

Mohichehra RO’ZIYEVA,
OXU Pedagogika va psixologiya
Kafedrasi mudiri, f.f.f.d.(PhD), dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290850>

Annotatsiya: Ushbu maqolada soʻz xalq ogʻzaki ijodida rang va maʼnoga qaratilgan. Xalq ogʻzaki ijodining ertak janrida rangga aloqador ramziy obrazlarning timsoliy makonni, timsoliy kiyim-kechakni, u yoki bu jonivorning timsoliy obrazini, inson goʻzalligini, maʼshuqaning jozibali koʻrinishini, insonning yosh xususiyatini, navqiron yoshdaligini yoki keksaligini, dov-daraxt, gul, oʻsimlik, mevalarning turlarini, narsa-buyumlarning timsoliy obrazini, maʼlum toifa kishilar oʻrtasidagi ijtimoiy tafovutni, koʻzga koʻrinmaydigan, lekin his etish, anglash mumkin boʻlgan mavhum tushunchalarni koʻrsatib beruvchi asosiy xususiyatlardan biri ekanligi haqida soʻz yuritilgan.

Tayanch soʻzlar: Folklor, ertak, doston, afsona, ruhiyat, ramziylik, obraz, tasviriy ifoda, mifologiya, magik qarashlar, animizm, totemizm, rang, oq, qora, qizil, koʻk, sariq, yashil.

Аннотация: В данной статье рассматриваются цвет и значение слов в устном фольклоре. Отмечено, что в жанре сказки народного устного творчества одним из основных признаков являются символические образы, связанные с цветом, указывающие на символическое пространство, символическую одежду, символический образ определенного животного, человеческую красоту, привлекательную внешность возлюбленного, молодость, девственность или старость человека, виды деревьев, цветов, растений, плодов, символические изображения предметов, социальные различия между определенными категориями людей, абстрактные понятия, невидимые глазу, но осязаемые и понятные.

Ключевые слова: Фольклор, сказка, поэма, легенда, нрав, психология, символизм, символ, символический образ, цвет, цветоведение, поэтические символы, символический смысл, символика, магические взгляды, мифологические взгляды, анимизм, тотемизм, тюркский фольклор, традиционность, цвет, белый, чёрный, красный, синий, жёлтый, зелёный.

Annotation: This article focuses on color and meaning in folk art. It is said that in the fairy tale genre of folk art, symbolic images related to color are one of the main features that indicate a symbolic space, a symbolic clothing, a symbolic image of a particular animal, human beauty, the attractive appearance of a lover, a person's youth, virginity or old age, types of trees, flowers, plants, fruits, symbolic images of objects, social differences between certain categories of people, and abstract concepts that are invisible to the eye but can be felt and understood.

Key words: Folklore, tale, poem, legend, symbol, poetics, colour symbolism, poetic symbols, animism, totemism, symbolic meaning, colour, white, black, blue, red, yellow, green.

Rang insonni nafaqat shodlantiradi, balki gʻazabga keltirishi, tashvishga solishi, gʻamgin qilib qoʻyishga ham qodir. U ruhiyatga kuchli taʼsir koʻrsata oladi. Ruhshunoslikda yorqin ranglarning inson kayfiyatini koʻtarishi, yorqin boʻlmagan ranglarning esa, aksincha, inson ruhiyatini tushirib yuborishi taʼkidlanadi. Baʼzi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ranglar xotirjamlik baxsh etsa, boshqasi aks ta’sir ko’rsatishi mumkin. Masalan, yashil, havo rang, ko’k ranglar tasalli beruvchanlik; pushti, qizil, sariq, olov ranglar esa asabni ko’zg’atuvchanlik xususiyatiga ega ekanligini ruhshunoslar aniqlashgan. Masalan, pushti rang – kuch-qudrat va qimmatni; zangori rang – buyuklik, go’zallik va mayinlikni; qora va qizil ranglar – o’lim ma’nolarini anglatadi. Tibbiyotda har bir rangning nafaqat kishi ruhiyatiga, balki salomatligiga o’zgacha ta’sir qilishi ilmiy jihatdan aniqlangan. Aytilishicha, qizil rang kishini harakatga kelishga undaydi, jonlantiradi.

Ranglarning issiqlik va sovuqlik ma’nosida inson ruhiyati va holatiga ta’sir ko’rsatishi choylarning nomlanishida yaqqol seziladi. Ko’k choy sovuqlik deyilganligi bois, asosan, issiq mintaqalarda, jazirama ob-havoda foydali ichimlik sifatida, qora choy esa nisbatan iqlimi sovuqroq hududlarda sovuq va namgarchiikdan himoyalaydigan vosita sifatida ichilgan. Shu bois qora choyni ko’proq shimoliy hududlarda, ko’k choyni esa janubiy mintaqalarda ichishgan.

Kishilarning yoshi, qaysi tabaqaga mansubligi ular kiyimining rangiga qarab ham ajralgan. Bu o’rinda bezak sifatida qo’llaniluvchi turli qimmatbaho tosh va metallarning rangiga ham alohida diqqat qaratilgan. Jumladan, ma’lum toshlarning kishi ruhiyatiga, sog’lig’iga, organizmiga ijobiy ta’siri uning rangi bilan bog’liq talqin etilgan. Kishining o’z tug’ilgan burjiga mos keluvchi muayyan bir rangdagi toshni taqinchoq yoki tumor sifatida taqib yurishi unga omad va baxt keltirishiga ishonishgan. Aytaylik, Arslon burji vakillariga sariq rangdagi toshlar: qahrabo, xrizolit, olivin va topaz mos kelishi aytiladi. Buzoq burjiga moviy rangdagi toshlar – feruza bilan sapfir yaxshilik keltiradi, deb qaraladi va hokazo.

Tekshiruvlarga qaraganda, odam kiygan kiyimning rangi uning dunyoqarashi, maqsadi, ruhiy kechinmalari, tanlagan yo’li bilan bog’liq bo’lar ekan. Masalan, shod-xurramlikni, xotirjamlikni, quvonchni yoqtiradigan kishilar ko’pincha oq rangdagi liboslarni kiyishni xush ko’rishsa, bemaqsad, tez ikkilanuvchan, ba’zan sirli, maxfiy kishilar qora kiyishi, yuksaklikka, ulug’vorlikka intiluvchilar esa qizil kiyimlarni ko’proq kiyishga o’ch bo’lishlari ta’kidlanadi. Shuning uchun tasavvufda ranglarning ramziy ma’nolariga alohida e’tibor qaratilganligi kuzatiladi. Tasavvufda ranglar har bir tariqatning asosiy g’oyasini, tushuncha va qarashlarini, muridning holatini, nafsning shakllarini o’zida tajassum etgan.

“Kubraviya” tariqati asoschisi Najmiddin Kubro o’zining “Latoif” nazariyasida ranglarning o’zgaruvchanligini quyidagicha aniqlaydi: oq – sariq – ko’k – zangori –

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

yashil – qizil – qora. Bu yeti xil rang muridning yeti xil holatini, ya'ni oq – islom, yashil – iymon, qizil – irfon, qora – hayrat va hayajonni ko'rsatadi, deydi.

Ma'lumki oq rang an'anaviy ma'no-mohiyatiga ko'ra tozalik, poklik, ezgulik ma'nolarini ifodalaydi. Najmiddin Kubroning oq rang insonning ruhiy olamiga bog'liq holda talqin qilinib, uning poklik va ma'sumalik, to'g'rilik ma'nolarini bildirishi qayd qiladi. Tasavvufiy nuqtai nazardan muridning poklanishi tushunchasi oq rang timsolida beriladi. Yashil rang “Latoif” asarida ulug' rang sanalib, haqiqiy iymonni, hayotiylikni ifodalaydi, sariq rang esa Allohga bo'lgan kuchli muhabbat, Allohga tomon yo'l boshlash, ya'ni tariqat ramzi sifatida aks ettirilgan. Najmiddin Kubro tasavvuf yo'liga kirgan muridning holati ranglar asosida ko'rsatar ekan, bu yo'lda ranglarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi murid ruhiyatidagi o'zgarishlarni anglatadi, deb ko'rsatadi.

Rang bilan bog'liq mifologik tasavvurlar, tushunchalar, obrazlar marosim va folklore tarkibida qanchalik keng qo'lanilgan bo'lsa, tadrijiy ravishda yozma adabiyotda ham an'anaviy o'rin egalladi, yangi-yangi talqinlar, ma'no qatlamlarini namoyon etdi. Umuman ranglar vositasida hayotni badiiy aks ettirish, inson ruhiyatini badiiy in'ikos qilish tajribasi asrlardan asrlarga boyib bordi.

Ranglarning inson kayfiyatiga ta'sir ko'rsatishi xalq tajribasida ham, ruhshunoslik ilmida ham sinovdan o'tgan. Bunday tajribaga ishora Alisher Navoiyning “Sab' ai sayyor” dostoni syujetida aks etadi. Binobarin, dostonda sevgilisi Diloromdan judo bo'lgach, bedavo dardga yo'liqqan, juda tushkunlikka tushgan Bahromning ko'nglini olish, uni chalg'itish uchun saroy mulozimlari maslahatlashib, yeti rangdagi qasr qurdiradilar. Oqrangdagi qasrda Bahrom yettinchi iqlimdan kelgan musofirdan Dilorom daragini eshitib, ko'ngli taskin topadi va yori visoliga qaytaerishadi. Asarda ranglar ketma-ketligiga alohida ahamiyat qaratilgan. Asarda hazrat Navoiy shoh Bahrom ruhiyatiga xos ranglarni ketma-ketlikda joylashtirar ekan, ranglarning kishi ruhiyati bilan bog'liqligini inobatga olib, ularning badiiy-estetik xususiyatlaridan qahramon ruhiy olamini ochib berishda ustalik bilan foydalangan. Adabiyotshunosolim S.Hasanov ushbu asardagi ranglar uyg'unligini tahlil qilarkan, har bir rangning asardagi o'rni va estetik vazifasiga alohida e'tibor qaratadi. Biroq u ranglarning umumiy ma'nosidan kelib chiqib fikr yuritish bilan cheklangan. Holbuki, asarda ranglarga nisbatan xalqning magik-mifologik qarashlari zamirida o'rta asrlarda turkey adabiyotda shakllangan badiiy-tasavvufiy munosabat o'zifodasini topganligini hisobga olish kerak edi. Chunki asardagi yakuniy hikoyaning oq rang hamda juma kuni bilan bog'lab, ezgulik ma'nosida (Bahrom

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Diloromni qayta topishi) talqin qilinishi asosida diniy-tasavvufiy g’oya ochib beriladi. Bu bilan shoir musulmon dunyosida oq rang va juma kuniga nisbatan ilohiy deb qarash an’anasiga tayanadi. Negaki, islomiy e’tiqodlarga ko’ra, Ollah haftaning yettinchi kuni, ya’ni jumada insonni yaratgan degan qarash mavjud. Shu sababli juma ko’pincha ezgulik kuni sifatida oq rang bilan aloqalantiriladi.

Demak, qadimgi insonlarning oq rangni ilohiy sanab, barcha ezgu va ijobiy tushunchalarni u bilan bog’lashi shoir Navoiyga ham Bahrom ruhiyatining kulminatsiyasini oq rang orqali ifodalashiga zamin yaratgan.

Epik janrlarda keluvchi barcha turdagi ramz, timsollar J.Eshonqulov haqli ravishda ta’kidlaganidek, “...inson ruhiyatining tili ” bo’lib, u tabiat bilan ana shu tilda gaplasha boshlagan. Shu timsollar tilida miflar, ertaklar, dostonlar yuzaga kelgan. Bu ijod mahsullari epic janrlarda keluvchi barcha turdagi ramz, timsollar o’zlari yaratilgan davrdagi inson kechinmalarining mevasi bo’lib, undagi timsollarni to’g’ri sharhlash bizni ajdodlarimizga yaqinlashtiradi, ularning ichki dunyosini yoritib beradi.

Qizil rang ham yuqorida aytilgandek, ertaklardagi badiiylikni oshiruvchi vositalardan biridir. Xalq ertaklarida “qizil gul”, “qizil yog’och”, “qizil olma”, “qizil shamol”, “qizil sandiq”, “qizil ko’ylak”, “qizil yuz” kabi qizil rang bilan bog’liq ramziy obrazlar turli-tuman sifatlovchilik mohiyatiga ega bo’lib, inson ruhiyatidagi sevinch, qayg’u, iztirob, shodlik kabi tuyg’ularni ifodalashda aniqlik va mukammallik bag’ishlaydi. O’zbek xalq sehrlari ertaklari turkumiga kiruvchi “Gulqahkah” ertagi “Bir bor ekan, bir yo’q ekan, bir podsho o’tgan ekan. Podsho ovga chiqib ketayotsa, uzoqdan bir qizil narsa ko’rinibdi. Podsho ikki vaziri bilan borib qarasa, qip-qizilgulning tagida uchta pari qiz o’tirganemish...” parchasi bilan boshlanadi. Ertak boshlanmasida yoq xalqning hayot, tabiatning boqiyliqi, oila haqidagi mifologik tasavvurlari va inonch-e’tiqodlari gul obrazi orqali timsollashtirilib, qizil rang esa bu timsolga “go’zallik, sevgi-muhabbat, oila” kabi ottenkalarni qo’shish uchun ifodalangan. Folklorshunos M.Jo’raev xalqning bahoriy marosimlaridan qizil gul sayli haqidagi tadqiqotlarida “qizil gul - quyosh, go’zallik va sevgi ma’budasining timsoli” - deb ta’kidlagan. Darhaqiqat, ertak davomida ko’rinadiki, podsho qizil gul ostida o’tirgan bu qizlar bilan suhbatlashgach, yoqtirib qolib, ikkitasini ikki vazirga beradi va uchinchisiga o’zi uylanadi.

Ko’pgina xalq ertaklarida dev obrazining turli ranglar orqali farqlanilganini ko’rish mumkinki, bunday ertaklarda rang devlarning kuch-qudratini, yovuzlik

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

darajasini (1-kun-oq dev, 2-kun-qizil dev, 3-kun-qora dev) belgilagan, desak xato bo‘lmaydi.

Ertaklaridagi bu mifologik obrazlar xalq qarashlarini o‘zida rang vositasida ramzan anglatgan holda, ularning bu yovuz kuchlarga nafratini ifodalab ertakning poetik mazmuniga yanada ko‘rk bag‘ishlaydi.

Demak, xalq og‘zaki ijodining ertak janrida rangga aloqador ramziy obrazlarning timsoliy makonni, timsoliy kiyim-kechakni, u yoki bu jonivorning timsoliy obrazini, inson go‘zalligini, ma‘shuqaning jozibali ko‘rinishini, insonning yosh xususiyatini, navqiron yoshdaligini yoki keksaligini, dov-daraxt, gul, o‘simlik, mevalarning turlarini, narsa-buyumlarning timsoliy obrazini, ma‘lum toifa kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy tafovutni, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin his etish, anglash mumkin bo‘lgan mavhum tushunchalarni, kasallik belgisini, mifologik timsollarni, vaqt tushunchasini, fasllarga xos belgini aniq tasvirlashga xizmat ko‘rsatuvchi ramziy poetik birikmalar kabi har xil ma‘no tiplariga duch kelish mumkin va ular ma‘lum shartlilikka asoslangani holda xalqning turli e‘tiqodiy qarashlari simvolikasiga aylanganligi bilan e‘tiborni tortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
2. Тернэр В. Символ и ритуал. – М.: Наука, 1983. – 277 с.
3. Oltin beshik. // Guliqahqah, O‘zbek xalq ijodi, Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1985. 7-9-46-betlar.
4. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. - Qarshi: “Nasaf” nashriyoti, 1999. – B.170.
5. Jurayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. T. “Fan”, 2008 y, 147-b.
6. Hasanov S. Go‘zallikda ranglar olami // Navoiyning yetti tuhfasini. – T.: Adabiyot va san‘at, 1991. – B. 192.